

XIX ASR IKKINCHI YARMIDA BUYUK BRITANIYA ICHKI SIYOSATIDA TA'LIM TIZIMIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR

Rustamov Olamgir Primkulovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Tarix yo'naliishi 2- kurs magistranti

Ilmiy rahbar: t.f.n. dotsent Maximov O.A.

(90)502 23 35 olamgir.r@mail.ru

Annotation: The education system is the main social structure of each state that needs special attention, and every government that comes to power seeks to improve this system in its domestic policy. The creation of a production system based on new modern technologies based on scientific achievements, which will serve to increase the economic potential of the country, is directly related to education. If we look closely, we can see that serious attention to education is under the personal control of state leaders. This shows that the education system is an important area of social life. In particular, we can see that in the second half of the 19th century and the beginning of the 20th century, the governments that came to power in Great Britain also tried to implement reforms to improve the education system and its condition. We will try to analyze as much as possible the contradictions, debates, discussions and results of the implementation of these reforms.

Keywords: education, primary education, reform, church education, the Law on Primary Education, trade unions, liberals, conservatives, government.

KIRISH

Hozirda bizning oldimizda dunyo mamlakatlarini tarixini mukammal o'rghanish vazifasi dolzarb bo'lib turibdi. Negaki, biz jahonning integrallashuviga moslashib borishimiz uchun ularning tarixini, ichki siyosati, davlat boshqaruvi, ijtimoiy siyosati, jumladan ta'lismiz kabi masalalarini o'rghanmog'imiz davr talabiga aylanib ulgurdi. Shu boisdan ham bugungi kunda oliy ta'lismiz muassasalarida dunyo mamlakatlarining siyosiy tarixi, ichki siyosati, ijtimoiy- siyosiy hayoti hamda boshqa davlatlar bilan o'zaro diplomatik munosabatlari o'rgatilib kelinmoqda. Shu maqsadda biz ham, Jahon tarixidagi eng yirik davlatlardan biri bo'lgan Buyuk Britaniya misolida, ushbu davlatning XIX asr ikkinchi yarmidagi ichki siyosatida ijtimoiy siyosatning asosiy bo'g'inlaridan hisoblangan ta'lismiz va unda amalga oshirilgan islohotlarni imkon qadar tahlil qilishga harakat qilamiz.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

XIX asrning birinchi yarmida Buyuk Britaniyadagi ijtimoiy siyosat liberalizm tamoyillariga tayangan, ijtimoiy hayat bilan uyg'unlashgan feodal iqtisodiyotdan kapitalistik iqtisodiyotga o'tishning ta'siri sezilarli ko'zga tashlanadigan siyosat edi¹. Jahon hamjamiatining ko'p asrlik taraqqiyoti shundan dalolat beradiki, turli tarixiy davrlarda Buyuk Britaniya kabi bir qator davlatlar o'zining sezilarli salohiyati va qudratiga tayangan holda dunyoning umumiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan, jahon siyosatidagi vaziyatni belgilab bergen. XIX asr 60- yillarida Buyuk Britaniya o'z tashqi siyosati tufayli erishgan yutuqlari bilan dunyoning ko'pgina yirik davlatlari bilan bellasha olar edi, ammo ta'lismiz, ilm-fan yutuqlari, shuningdek ichki siyosat masalalarida ahvol havas qilarli darajada emas edi. Vaqt o'tishi bilan hukumatning o'zi ham tushunib yetdiki, Britaniya ta'lismiz Yevropa davlatlaridan orqada qolayotgan edi. Bu ayniqsa 1867- yilda Parijda o'tkazilgan Butunjahon ko'rgazmasida yaqqol namoyon bo'ldi. Ushbu ko'rgazmada yetakchilikni qo'lga kiritgan Germaniya ilm-fan yutuqlari borasida nafaqat Buyuk Britaniyadan, balki Yevropaning ko'pgina davlatlaridan ilgarilab ketganligi ma'lum bo'ldi. Ushbu ko'rgazmada taqdim etilgan ko'plab texnologiyalar birinchi navbatda Germaniya ta'lismizining samarali natijasi edi.² Ingliz hukumati ham ta'lismizini isloh

¹ Подольский В.А. Предпосылки формирования социального государства в Великобритании во второй половине XIX – начале XX вв.// Государственный академический университет гуманитарных наук, Москва, Российская Федерация// ЛОКУС: люди, общество, культуры, смыслы. 2021. Т. 12. № 3. 71 с.

² Education in England: a history: Chapter 6 : 1860-1900 A state system of education. Derek Gillard. 2018.

qilish va davlat nazoratini o'rnatish maqsadida islohotlarni amalga oshirishni boshlagan edi. Ushbu ishlar davomida 3 ta maxsus ta'lif komissiyasi tashkil etildi:

1. 1858- yilda tashkil etilgan Xalq ta'lifi bo'yicha Qirollik komissiyasi;
2. 1861- yilda tashkil etilgan Davlat maktablari bo'yicha Qirollik komissiyasi;
3. 1864- yilda Maktablarni tekshirish va nazorat qilish komissiyasi. Ammo bu tashkil etilgan tashkilotlar sinfiy tabaqalanishni yanada kuchaytirdi.

Liberallar yetakchisi Uilyam Gladston hukumati davrida ta'lifni isloq qilish maqsadida bir nechta qonun hujjatlari qabul qilindi³. Jumladan, 1868- yilda "Davlat maktablari to'g'risida", 1869- yilda "Cherkov maktablari to'g'risida" hamda 1870- yilda "Boshlang'ich ta'lif to'g'risida"gi qonunlar shular jumlasidandir. 1870-1902- yillar oralig'ida amalga oshirilgan islohotlar natijasida boshlang'ich ta'lif ham bepul, ham majburiy etib belgilandi, davlat boshlang'ich va o'rta maktablari tashkil etildi va ta'lif ustidan markaziy hukumat nazorati sezilarli darajada oshganligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, ayni Gladston hukumati tomonidan nafaqat kambag'al oila farzandlarini ta'limga jalb etibgina qolmasdan, sog'ligida muammosi ya'ni imkoniyati cheklangan bolalarni ham ta'limga jalb qilishga alohida e'tibor qaratdi⁴. 1870- yilgacha boshlang'ich ta'lif asosan Britaniya cherkovi milliy jamiyatni va Britaniya va chet el maktablari jamiyatni tomonidan tashkil etilgan hamda nazorat qilingan. Ingliz hukumati bu ikki organga 1833- yildan boshlab maxsus grantlar ajratgan va grantlarni taqsimlashni tartibga soluvchi tartiblar har yili maxsus Nizom asosida belgilanar edi. 1850-yillarning oxirlariga kelib, cherkovlar barcha bolalar uchun yetarli darajada maktab o'rinalarini ta'minlay olmasligi aniq bo'la boshladi, shuning uchun ham 1858-yilda Nyukasl gersogi raisligida Angliyada xalq ta'lifi holati bo'yicha Qirollik komissiyasi tashkil qilindi. Uning asosiy vazifasi Angliyadagi xalq ta'lifining ahvolini o'rghanish va agar mavjud bo'lsa, odamlarning barcha tabaqalariga asosli va arzon boshlang'ich ta'lifni kengaytirish uchun qanday choralar ko'rish kerakligini ko'rib chiqish va bu haqda hisobotlarni hukumatga taqdim etish edi. Komissiya 1861-yilda olti jildlik hisobotini e'lon qildi.⁵ 1858- yil yozida e'lon qilingan statistik ma'lumotlarda Angliya va Uelsning butun aholisi 19 523 103 kishini tashkil etgan. Shundan ismlari maktab kitoblariga yozilishi kerak bo'lgan, ya'ni maktabga borishi kerak bo'lgan bolalar soni 2 655 767 nafarni tashkil etgan holda, aslida bu davrda maktablarga jalb qilingan bolalar soni 2 535 462 ni tashkil etgan. Bundan kelib chiqadiki, 120 305 bola ta'limga jalb etilmasdan qolgan. Jami 2 213 694 nafar bola kunduzgi maktablarda boshlang'ich ta'lif olgan. Shunday qilib, Angliya va Uelsdagi xalq ta'lifining holatini ko'rsatadigan oddiy raqamlarga qaraganda, ta'lif oladigan bolalarning butun aholiga nisbati, bizning fikrimizcha, kutilgan darajadan yuqori. Taqqoslash uchun shuni aytish mumkinki boshlang'ich ta'lif majburiy bo'lgan Prussiyada 6,27 %; Gollandiyada 8,11%; Fransiyada u 9,0 % ni tashkil etgan holda Angliya va Uelsdabu ko'rsatkich 7,7 % ni tashkil etgan⁶. Komissiya hisobotida shuningdek, maktablardagi ta'lif sifati hamda, kambag'al qatlamlarning bolalarini maktabga jalb etish to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi ham tanqid qilingan edi. Chunki bu davrda nisbatan o'ziga to'q oilalarning bolalari maktablarga faol jalb qilingan, kambag'al oilalarning bolalari tirikchilik uchun mehnat qilishga majbur bo'lgan. Ishchilar manfaatini himoya qiluvchi tashkilotlar esa sekin- asta yosh bolalarning mehnat qilishini taqiqlashni ko'zda tutuvchi qonunlarni qabul qilish talabi bilan hukumatga murojaat qilishni boshladi. Hukumat ham bolalarni mehnat qilishdan saqlab turuvchi vosita sifatida boshlang'ich maktablar tizimini isloq qilish hamda bolalarni maktablarga jalb qilishni tizimlashtirish masalasini kun tartibiga chiqardi. 1862- yilda boshlang'ich maktablar faoliyatini yaxshilash maqsadida maxsus Kodeks qabul qilindi⁷. Shu o'rinda ta'lif tizimini isloq qilish hamda undan ko'zlangan yuqori natijalarga erishish uchun bu sohaga yetarlicha mablag' ajratilishi ham maqsadga muvofiq. Hukumat tomonidan ta'limga sarflangan harajatlar 1848-yilda 125 000 funt sterling bo'lgan bo'lsa, 1861-yilda 800 000 funt sterlinggacha ko'tarildi. Kodeksda qabul qilingan qarorda

³ Uilyam Yuart Gladston Buyuk Britaniyaning 1868- 1874- yillardagi 41-, 1880- 1885- yillarda 43-, 1886- yil fevral- avgustda 45-, 1892- 1894- yillarda 47- bosh vaziri. Angliyaning Liverpul shahrida, kelib chiqishi shotland bo'lgan oilada tug'ilgan.

⁴ Архипова Л. В. Становление образования детей с ограниченными возможностями в Великобритании в XIX в.// Ярославский педагогический вестник – 2012 – № 4 – Том I (Гуманитарные науки) 80- с.

⁵ Education in England: a history: Chapter 6 : 1860-1900 A state system of education. Derek Gillard. 2018.

⁶ Education in England: a history: Chapter 6 : 1860-1900 A state system of education. Derek Gillard. 2018.

⁷ Ushbu kodeks "Qayta ko'rib chiqilgan kodeks" yoki "Lou kodeksi" deb ataladi. Ta'lif bo'yicha Kengash qo'mitasi vitse-prezidenti Robert Lou (1811-1892) sharafiga shunday nomlangan.

esa, 1860-yillarning o'rtalaridan boshlab bu mablag'ni 600
000 funt sterlinggacha kamaytirish ko'zda tutilgan edi. Ammo, 1870- yildagi "Boshlang'ich ta'lism to'g'risidagi" qonun qabul qilingandan so'ng, maktabga qatnaydigan bolalar soni oshganligi sababli, bu harajatlar oshirildi. 1870-yilda "Boshlang'ich ta'lism to'g'risidagi" qonun qabul qilindi. Ushbu qonunni qabul qilishdan oldin mamlakatning turli hududlardagi maktab bolalarini to'liq ta'limga qamrabolishni ta'minlash maqsadida o'rganishlar olib borildi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida 1869- yil oktabrda Milliy ta'lism ligasi tashkil etildi. Unga rais etib Jorj Dikson (1820-1898), liberal deputat Jessi Kollings (1831-1920) kotib va Jozef Chemberlen (1836-1914) vitse-prezident etib tayinlandi⁸. Ushbu liga a'zolari tomonidan turli kuzatish va o'rganishlar olib borilishi natijasida mamlakatda yashayotgan bolalarning ijtimoiy ahvoli ham aniqlashtirildi. Liga a'zolari o'rtasida qonun loyihasi muhokamasida turli tortishuvli, munozarali vaziyatlar ham yuzaga keldi. E'tibor qaratadigan bo'lsak, bu davrda Buyuk Britaniyada boshlang'ich ta'lism havas qiladigan darajada yaxshi bo'lmagan. Hukumat tomonidan tashkil etilgan komissiyalarda faoliyat olib borgan hamda tekshiruvlar natijasida o'z takliflarini qonun loyihasiga kiritishga harakat qilgan deputatlar o'rtasida ham tafovut borligini ko'rish mumkin. Uilyam Foster, Edvard Beyns kabi deputatlar ko'proq o'ziga to'q qatlama uchun foydali loyihalarni taklif qilgan bo'lsalar, Entoni Mandella esa mamlakatda yashayotgan barcha bolalar uchun ta'lismni majburiy etib belgilash kerakligini, aholi kambag'al qatlaming farzandlarini ham maktablarga jalb etish lozimligini ta'kidladi. Mamlakatdagi qashshoqliklarga faqat majburiy sifatlari ta'lism bilan barham berish mumkinligini, agarda bu amalga oshmas ekan, London ko'chalarida qashshoqlik kamaymasligi, jinoyatchi, o'g'ri, kissavur va talonchilar yanada ko'payishini o'z hisobotlarida qayta-qayta eslatib o'tdi.

XULOSA

XIX asr ikkinchi yarmida Angliya va Uels aholisi deyarli ikki baravar ko'paydi – 1851-yilda 16,8 million kishini tashkil etgan bo'lsa, 1901- yilga kelib 30,5 millionga yetdi.⁹ E'tibor qaratadigan jihat shundaki, asr boshlarida Buyuk Britaniyada davlat ta'limi yo'q edi: mavjud maktablar ham asosan cherkovlarga tegishli bo'lib, mamlakatning sinf tuzilishiga mos ravishda rivojlanishiga ruxsat berilgan edi. Solishtirib o'tadigan bo'lsak, bu vaqtida Amerika Qo'shma Shtatlarida 1830-yillarga kelib, barcha fuqarolar uchun umumiy ta'limga asoslangan davlat maktablari tizimi yaratila boshlagan edi. Dastlabki vaqtarda asosan oddiy ishchilar sinfi ham o'z bolalarini sifatlari ta'lism olishini xohlashar edi va bu muammoni hal etish maqsadida bir necha marta namoyishlarni amalga oshirish holatlari uchrab turgan. Bundan ko'zlangan maqsad ta'limga, xuxusan maktab ta'limga davlat nazoratini o'rnatishni ta'minlash bo'lgan. Ammo, o'rta va yuqori sinf tabaqalari (asosan ruhoniylar) ta'limga davlat nazorati o'rnatilishini xohlashmagan. Agar ta'lism davlat nazoratiga o'tadigan bo'lsa bu cherkovning ahamiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin edi. Lekin shunga qaramasdan hukumat miqyosida ta'lism tizimiga davlat nazoratini o'rnatish masalasi dolzarb masalaga aylandi. Bir qancha qonun loyihalardan so'ng majburiy boshlang'ich ta'lism va uning asosiy negizlari to'g'risida qonun qabul qilinishiga erishildi. Bu o'sha davr ijtimoiy-siyosiy qatlarning tarixiy yutug' hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR: (REFERENCES)

1. Архипова Л. В. Становление образования детей с ограниченными возможностями в Великобритании в XIX в.// Ярославский педагогический вестник – 2012 – № 4 – Том I (Гуманитарные науки)
2. Айзенштат М.П. Политические партии Англии. Исторические очерки. "Pax Britannica" Алетейя, 2017
3. Подольский В.А. Предпосылки формирования социального государства в Великобритании во второй половине XIX – начале XX вв.// Государственный академический университет гуманитарных наук, Москва, Российская Федерация// ЛОКУС: люди, общество, культуры, смыслы. 2021. Т. 12. № 3.
4. Ерофеев Н.А. Очерки по истории Англии 1815-1917 гг. Москва 1959.
5. Широкорад А. Б. Британская империя. М., 2014

⁸ Education in England: a history: Chapter 6 : 1860-1900 A state system of education. Derek Gillard. 2018.

⁹ Education in England: a history: Chapter 6 : 1860-1900 A state system of education. Derek Gillard. 2018.

-
- 6. Education in England: a history: Chapter 6 : 1860-1900 A state system of education. Derek Gillard. 2018.
 - 7. Morton. A.L. A people's history of England. London.: 1948.